

## **PSIXOLOGIYA FANIDA AFFILIATSIYA MOTIVINING PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA O'RGANILISHI**

*Mussayeva Muxlisa G'aybulloyevna*

*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada psixologiya fanida affiliatsiya motivining psixologik fenomen sifatida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** gender va yosh xususiyatlari, diagnostika, korreksiya, psixologik tabiat, motiv, ekzopsixika nazariyasi.

**Аннотация.** В данной статье исследуется мотив аффилиации как психологическое явление в психологической науке.

**Ключевые слова:** гендерные и возрастные особенности, диагностика, коррекция, психологическая природа, мотив, теория экзопсихики.

**Annotation.** This article explores affiliation motivation as a psychological phenomenon in psychology.

**Key words:** gender and age characteristics, diagnosis, correction, psychological nature, motive, exopsychic theory.

**Kirish.** Affiliatsiya motivi ilmiy asoslangan, empirik ma'lumotlarga tayangan holda o'rganilganda, uning tarkibi, gender va yosh xususiyatlari, shuningdek, xarakteriologik va shaxs xususiyatlari o'rtaqidagi o'zaro bog'liqligini, bolalikdan oiladagi o'zaro munosabatlarda odatiy uslublarning o'rganilishi, olingan natijalardan keyingi korreksiya va diagnostika ishlarida, kommunikativ kompetent mutaxassis kadrlarni tayyorlab berishda, shaxslararo munosabatlar doirasida talqin etilganda, muvofiqlikka va uyg'unlikka erishish, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilash mumkin bo'ladi. Bu holat mamlakatimizda tarbiyalanayotgan yoshlar orasida, xususan, talabalarda affiliatsiya motivining psixologik tabiatini o'rganishda yangi diagnostik apparat

(metodikalar majmuasini) va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda mualliflik ta'riflarni berish, shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya mexanizmlari, ijtimoiy-psixologik trening modelini ishlab chiqilishini dolzarb ilmiy zarurat sifatida namoyon etadi. Psixologiyada motivatsiya muammosiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ham paydo bo'la boshladiki, ularda rus hamda xorij psixologlarining o'rni beqiyos (V.G. Aseyev; V.K. Vilyunas; Ye.P. Ilin; V.I. Kovalev; S.L. Rubinshteyn; A.N. Leontyev; M.Sh. Magomed-Eminov; V.S. Merlin; P.V. Simonov; D.N. Uznadze; A.A. Fayzullayev; P.M. Yakobson), shuningdek chet el psixologiyasida (G. Myurrey; A. Adler; Dj. Atkinson; K. Levin; K. Madsen; A. Maslou; Dj. Rotter; X. Xekxauzen; G. Xoll va bosh.). XX asrning yirik allomalaridan hisoblangan L.I. Petrajiskiy esa ilk marotaba Peterburg universitetida "Inson xatti-harakati motivlari to'g'risida" nomli asarini e'lon qilgan. Muallif motivatsiyaning ilmiy nazariyasini yaratish g'oyasini ilgari surib, psixologiya va boshqa fan sohalari uchun nihoyatda zarur ekanligini o'z ilmiy izlanishlarida isbot qilishga harakat qilgan. Uning fikricha, shaxsning xulq - atvorini oqilona baholash uchun uning motivatsiyasini hisobga olmaslik mutlaqo mumkin emas. Xuddi shu boisdan, u xuquqshunoslar uchun motivlar masalasini o'rganish zarur ekanligini qayd etib, inson va uning motivatsiyasini psixologik nuqtai nazardan turib tahlil qiladi. Rus psixologi, tabiiy eksperiment metodining asoschisi A.F. Lazurskiy (1908) psixik jarayonlarni va shaxsning xususiyatlarini tadqiq qilayotib, motivlar masalasiga alohida qiziqish bilan yondashadi. Buning uchun muallif o'z ilmiy izlanishlarida "mayllar va xohishlarning kuchi hamda zaifligi", "motivlar kurashiga moyilligi", "motivlarning muhokamasiga tortilganligi" kabi yondashuvlar orqali o'rganishga intiladi. Shuning bilan birga A.F. Lazurskiy intilish rivojining darajasi ongli irodaviy zo'r berishga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ana shu sababdan bo'lsa kerak, u shaxsning o'rganish dasturida munosabatlar tizimiga keng o'rin ajratgan. Muallif o'z tadqiqot dasturida shaxsga ijtimoiy yondashishga harakat qilgan. Lekin masalaga endopsixika va ekzopsisixika nazariyasiga asoslanib yondashganligi sababli insonning ijtimoiy mohiyati, shaxsning biologik va ijtimoiy shartlangan jabhalari uyg'unligi ilmiy ifodasini topmagan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, rus psixologi A.A.Uxtomskiy (1875-1945) organizm funksional holatlarining determinantlari muammosini o'rghanish jarayonidamotivlar masalasiga e'tibor berib, muammoni fiziologik, psixologik, dunyoqarashlik jahbalaridan turib tahlil qiladi. Xulq-atvor yaxlitligi tufayli organizm integral butunlik tariqasida tushuntiriladi. Bunday yondashuv psixologik va fiziologik holatlarning biri ikkinchisidan ajralmas ekanligini bildirib turadi. Muallif motivni insonning zo'r berishi natijasida shakllanuvchi qo'zg'atuvchi sifatida talqin etadi va hayot jarayonida o'zgaruvchanligini ta'kidlab o'tadi. Olimlar motivlarni tasniflashda uning mohiyatini qanday tushunishlariga qarab ajratganlar. Shaxsning turli ehtiyojlariga ko'ra: motivlar biologik va ijtimoiy turlarga ajraladi. Biz o'z tadqiqotimizda ijtimoiy motivlarni o'rghanishga qaror qildik. Ijtimoiy motivlar o'z navbatida o'zini-o'zi hurmat qilish motivi, o'zini-o'zi namoyon qilish motivi, muvaffaqiyatga erishish motivi, faoliyatga intilish motivi muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi kabi turlarga bo'lishi mumkin. Fikrimizcha, o'quv faoliyatida sodir bo'luvchi affiliatsiya jarayonini ijodiy, shaxsiy yoki o'yin kabi turlarga bo'lish noo'rindir, sababi o'qish jarayonidagi muloqot bu ijodiy, shaxsiy va o'yin muloqotining birligi, uyg'unlashuvi natijasidir. Yana shu yo'nalishda o'z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan G.S. Abramova, V.A. Kak Kalik, T.A. Matis va A.K. Markova ishlari bizda katta qiziqish uyg'otdi.

### **Adabiyotlar.**

1. Borisova A.A. Pronisatelnost kak problema psixologii obshcheniya// Vopr.psixol.-1990.- №4.- S. 17-23.
2. Buunk B.P. Affiliatsiya, attraksiya i blizkiye otnosheniya. V kn.: Perspektivi sosialnoy psixologii. Vtoroye mejdunarodnoye ... k deystviyu // Voprosy psixologii. - 1985. - № 3.- S. 78-85.
3. Vaysman R.S. K probleme razvitiya motivov i potrebnostey lichnosti v ontogeneze // Vopr.psixol.- 1973.- №5. - S.23-40.
4. Vanen D., Man F. Professionalnaya podgotovka uchiteley i problemi Motivasiy dostenjeniya i kontrolya deystviya // Vopr.psixol.- 1989.-№3.- S.75-79.